

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i> O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RIQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Рахманкулова Адолат Хушбаковна</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> O'ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Исламутдинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI	76-83
<i>Djumanioyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TA'LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyeva</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqumova Dilafruz</i> IRFONiy SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI	169-172
<i>Berdikulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIK-LAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE".....	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUIJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	207-210

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i> СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i> РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 2 June 2025
Accepted: 15 June 2025
Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

**THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THE CATEGORY "MEASURE"
IN PRESERVING THE BIOSPHERE**

Salomova Hakima Yusupovna

Doctor of Philosophy, Professor
Bukhara State University

Abstract. This article explores the essence of the concept of ecological measure and examines its philosophical and scientific interpretations as provided by Hegel, Al-Biruni, and Ibn Sina. It analyzes the harmony of quality and quantity in nature and highlights ecological imbalances and crises that occur when natural norms are violated. The paper presents a comparative analysis between natural ecological standards of atmospheric, hydrospheric, and biospheric components and the actual indicators resulting from anthropogenic activity. Specific data are used to illustrate global environmental problems arising from deviations in ecological norms of elements such as oxygen, carbon dioxide, sulfur dioxide, nitrogen oxides, chlorine, ozone, freons, petroleum products, lead, and radiation levels.

Keywords: ecological measure, natural ecological balance, anthropogenic factors, biosphere, ecological crisis, carbon dioxide, ozone layer depletion, freons, ecosystem, ecological culture, laws of nature, green economy, atmospheric pollution, ecological sustainability, eco-component, limiting factor, global environmental threat.

**ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY
AHAMIYATI**

Salomova Hakima Yusupovna

Falsafa fanlari doktori, professor
Buxoro davlat universiteti
E-mail: x.y.salomova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik me'yor tushunchasining mohiyati, uning Gegel, Beruniy va Ibn Sino tomonidan berilgan falsafiy va ilmiy talqinlari o'rganiladi. Tabiatda mavjud bo'lgan sifat va miqdor uyg'unligi, tabiiy me'yorlar buzilgan holatlardagi ekologik muvozanatsizlik va inqirozlar misollar asosida yoritiladi. Atmosfera, gidrosfera, biosfera va boshqa tabiiy tizimlardagi komponentlarning tabiiy-ekologik me'yorlari bilan antropogen faoliyat oqibatidagi real ko'rsatkichlari taqqoslab ko'rsatilgan. Xususan, kislorod, karbonat angidrid, oltingugurt va azot oksidlari, xlor, ozon, freonlar, neft mahsulotlari, qo'rg'oshin va radiatsion fonning ekologik me'yorlardan chekinishi oqibatida yuzaga kelayotgan global ekologik muammolar aniq raqamlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ekologik me'yor, tabiiy-ekologik muvozanat, antropogen omillar, biosfera, ekologik inqiroz, karbonat angidrid, ozon qatlamining yemirilishi, freonlar, ekotizim, ekologik madaniyat, tabiat qonunlari, yashil iqtisodiyot, atmosferaning ifloslanishi, ekologik barqarorlik, ekokomponent, limitrik omil, global ekologik xavf.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N11>

Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. Ya'ni, yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar xavfi hamon tahlikali holatda saqlanib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2025-yil 15-maydagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Qarori jahonda ro'y berayotgan ekologik inqirozlarni oldini olishga javob tariqasida vujudga keldi. Birgina bu qarorgina emas, balki "Yashil iqtisodiyot" borasidagi, Orol ekotizimiga oid amaliy ishlari ham tahsinga loyiq. Bunday rejalarni amalga oshirishda barcha o'zbekistonliklar jonbozlik ko'rsatishlari davr talabidir.

Falsafadagi "me'yor" kategoriyasining borliqdagi amaliy ahamiyati nihoyatda muhim. "Me'yor" kategoriyasining birgina o'ziga Gegelning yigirmadan ortiq tasnif berganligi ham bundan dalolat beradi. Gegeldan ancha ilgari Markaziy Osiyo mutafakkirlari ham o'z asarlarida borliqda o'rni beqiyos bo'lgan bu kategoriyaga katta ahamiyat berishgan. Beruniy me'yorni "xos adad", "haqiqatga yaqin miqdor", "o'rtacha miqdor", "aniq miqdor" deb; Ibn Sino esa "aniq sifatli miqdor", "mo'tadillik", "sifatlar mosligi", "zaruriy miqdor", "talab qilinadigan miqdor", "tadbir", "had" deb, me'yorning amaliy ahamiyatini insonning bemorlik va salomatlik me'yorlari orqali o'z davrlarida ko'rsatib, uning amaliy ahamiyatini chuqur yoritishgan edilar. Agar Gegel me'yor tasniflarining birida me'yor — "ikkala sifatning miqdoriy munosabati" [1; 474-475], deb ta'kidlagan bo'lsa, Ibn Sino "me'yor – to'rtta sifatning o'zaro mutanosibligi, munosabatidir"[2; 17-18] deb, me'yor kategoriyasining bir qancha modifikatsiyalarini o'z tajribasida ko'rsata oldi. "Me'yor – sifat va miqdorning yaxlitligi" tasnifidan boshqalari ham uning juda serqirra hamda purma'no kategoriya ekanligini bildiradi. "Me'yor – aniq miqdor", "Me'yor — xos miqdor", "Me'yor – sifat va miqdorning sintezi", "me'yor go'yo ikkala me'yorlar munosabati" va ho. Bo'ri bilan kiyik, sudak bilan zog'ora balig'i, qisqasi, «yirtqich va o'lja» o'rtasida ham, simbioz organizmlar orasida ham miqdoriy mutanosiblik, ya'ni tabiiy-ekologik me'yor mavjud. Bunda tabiiy-ekologik me'yor ikkala har xil sifatning miqdoriy aloqadorligi, yaxlitligi ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Suv ekotizimi samarali bo'lmog'i uchun 1 ta sudak (yirtqich) balig'iga 30 ta zog'ora balig'i (tinchliksevar baliq) mos keladi, ya'ni 1:30 kabi, bu mutanosiblik izdan chiqsa, suv havzasining biomahsuldorligiga putur yetadi. Bo'rilar kiyik galasiga hujum qilar ekan, hech qachon sog'lom kiyikka hujum qilmaydi. Aksincha, u galadagi nimjon, kasal kiyik bolalariga hujum qiladi. Bu bilan bo'ri kiyiklar to'dasini bir tomondan miqdorini me'yorlashtirsa, ikkinchi tomondan sifat jihatdan saralaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Yer yuzidan so'nggi 50 yilda hayvonlarning 100 dan ortiq turi, Markaziy Osiyoda esa 26 turdagi qushlar, 12 turdagi sut emizuvchilar, jumladan, Turon yo'lbarisi, Osiyo qoploni va boshqa endemik turlar butunlay yo'q bo'lib ketgan.

Me'yorning tabiiy borliqda namoyon bo'lishi, g'oyatda xilma-xil, o'ziga xos va nihoyatda murakkabdir. Tabiat borlig'ida hukmron bo'lgan me'yorni anglash, tushunish va unga rioya qilish juda qiyin. Hayotda bu me'yorlarga amal qilinmasa, har xil ekologik bo'hronlar, tabiiy ofatlarning xilma-xil ko'rinishlari sifatida ro'y beraveradi. Mana birgina misol, ozon qobig'ining o'z me'yoridan kamayishi butun insoniyatni xavfga soluvchi "ozon tuynugi"ni keltirib chiqishiga sabab bo'ldi. Yoki atmosfera tarkibidagi karbonat angidrid gazining o'z me'yoridan

oshib ketishi, biosferada “bug’li qobiq” ning kelib chiqishiga sabab bo’ldi. Demak, biosfera va uni tarkibiy qismlarining tabiiy me’yoriga amal qilish bir mamlakatning emas, balki butun insoniyat, butun kishilarning tabiat oldidagi odamiylik burchidir.

Tabiiy borliqda sifat va miqdor ko’rsatkichsiz komponentlarning o’zi yo’q. Har bir ekologik komponent, omil o’zining sifat va miqdor ko’rsatkichlariga ega. Tabiiy-ekologik me’yorlar: fizikaviy, kimyoviy, geologik, genetik, biologik bo’lishi mumkin. Tabiiy-ekologik me’yorlarni mohiyatiga ko’ra biz quyidagi guruhlariga ajratamiz:

1. Ekokomponentning (hujayra, organizm, tur, populyatsiya, ekosistemaning) me’yori;
2. Ekologik omillar (biotik, abiotik va antropogen) me’yori;
3. Organizm va ekosistemaning yosh (o’sish) me’yori;
4. Organizmning jins me’yori;
5. Ekologik komponentlarning chidamlilik (tolerantlik) me’yori;
6. Organizm tur ekosistemalarning limitrik (asosiy-zamin, nozik) me’yori;
7. Organizm, tur va ekosistemaning tor va keng me’yori;
8. Organizm, tur, ekosistema, biosferaning qat’iy me’yori (boshqacha so’zlar bilan aytganda, biosferaning doimiyliklar);
9. Populyatsiya va tur sonining me’yori;
10. Ekokomponentlarning moslashish adaptatsion me’yori;
11. O’simliklar (flora) bilan hayvon (fauna)lar orasidagi miqdoriy mutanosiblik va ho.
12. **Abiotik me’yorlarga misollar:** Masalan, baliqlar uchun suvning minerallashuv me’yori 6-8 gramm litrga teng yoxud 1 litr suvda 6000 dan 8000 mg tuz bo’lsa, bu ko’rsatkich mineral-tuzning qulay tabiiy-ekologik me’yoridir. Suvning vodorod ko’rsatkichi esa rN 6,5-8,6 gacha bo’ladi. Bunday ko’rsatkichlarda baliqlar o’zlarini yaxshi his etishadi. Palma o’z hosilini harorat 26 gradusdan to 41 gradus bo’lganda yetkazib beradi, cho’rtan balig’i sho’r suvni, tunes balig’i chuchuk suvni yomon ko’radi. Kanadada kislotali yomg’ir (suv vodorod ko’rsatkichining tabiiy-ekologik me’yori izdan chiqqani) tufayli 4000 ta ko’l o’lik deb hisoblandi, qolgan 12 000 ko’l esa halokat yoqasiga kelib qolgan, ya’ni ularning vodorod ko’rsatkichlari rN 6-8dan ancha yuqori. Shvetsiyadagi ko’llarning vodorod ko’rsatkichlari buzilgani oqibatidan 18 000 ko’ldagi biologik muvozanatga putur yetgan.

Biotik me’yorga misollar: Ma’lum hududdagi olmaxonlar sonini o’sha hududdagi archa g’uddalari miqdori belgilaydi. Demak, olmaxonlarni asrash uchun biz archa daraxtlariga ziyon yetkazmasligimiz lozim ekan. Yoki yirtqich va yirtqich bo’lmagan baliqlar o’rtasida; urg’ochi va erkak jinslar orasida ham miqdoriy mutanosiblik tabiiy-biotik me’yorga o’rinli misol bo’la oladi. Ko’pgina turlar uchun 1:1 kabi bo’lsa, ba’zi turlar uchun 1:4 va hatto 1:10 bo’lishi mumkin, ya’ni bir xo’rozga bir necha tovuq mos kelganidek. Asalarilarning tabiiy-ekologik me’yorlardan yana biri – asalari uyasidagi «ijtimoiy» me’yordir: har doim bir oilada bir dona Ona asalari (Beruniy iborasi bilan aytadigan bo’lsak, Yaasib; ba’zilar fikricha, podshoh ari); bir necha yuz erkak arilar (trutni-dangansa arilar degani – S.H.); va bir necha o’n mingdan toki 100 000 va undan ortiq ishchi-asalarilar bo’ladi. Ari oilasidagi bu miqdoriy mutanosiblik – 1:100:100000 — ya’ni bu tabiiy-ekologik me’yor doimo saqlanadi. Ona asalari halok bo’lsa, asalari oilasi halokatga uchraydi. Asalari uyasi mavjudligi uchun uch yagonalik — uch sifatning muayyan miqdoriy munosabati — buzilmasligi shart.

Antropogen omil ham o'z me'yoriga ega. Insonning hayot kechirish jarayonida amalga oshiruvchi turli-tuman faoliyatining ekologik komponentlarga ta'siri **antropogen omil** deyiladi. Masalan, tuproqqa 8 – 12 tonna og'irlik bilan ta'sir qiluvchi qishloq xo'jaligi texnikalari tuproqning nafaqat abiotik me'yorini, balki biotik me'yorini ham izdan chiqaradi. Hisob-kitoblarga ko'ra 1 gramm namli o'rmon tuprog'ida 25 mlrd. bakteriya, 15 mln. aktinomitset zamburug'i, 1 mln. gacha mog'or zamburug'i va 100 mingtagacha suv o'tlarini uchratish mumkin. 1 gr. tuproqdagi 3–3,5 mlrd. jonli organizmlar qishloq xo'jalik texnikalarining bunday og'irlikdagi bosimiga dosh bera olmaydi, zero bir vegetatsiya davrida ularning 18 martadan 27 martagacha yangilanishi tuproqni boy gumus bilan ta'minlaydi. Insoniyat o'zi anglamagan holda tabiatga tazyiqini kuchaytiraveradi. Antropogen omilning eng qudratli va katta kuch deyilishiga sabab uning tabiatga ta'sir ko'rsatish darajasi va ko'lamining kengligi hamda vositalarining xilma-xilligi hamdir. Insonning o'zi tabiatda ilgari bo'lmagan birikmalarni ham ishlab chiqardi. Natijada tabiiy-ekologik me'yorlar uzviy tizimi izdan chiqib, ekologik bo'hron boshlanadi. Insoniyat o'zining ongli faoliyatini chuqurroq o'ylab faoliyat ko'rsatish mavridi keldi.

Tabiiy-ekologik me'yorlarni o'rganish paytida quyidagi xarakterli belgilarni aniqlash mumkin:

1. Barcha eko-komponent va ekologik omillar o'z tabiiy-ekologik me'yoriga ega.
2. Tabiiy-ekologik me'yorlar bir-biri bilan dialektik aloqador bo'ladi, sabab va oqibat tizimini yechishda biz tizimli tabiiy me'yorlarga duch kelamiz: konsorli, topik, trofik va boshqa xildagi bog'lanishni ifodalovchi me'yorlarga duch kelamiz. Demak, barcha ekologik me'yorlar bir – biri bilan bog'lik holda mavjud bo'la oladi. Bir tabiiy-ekologik me'yor ikkinchi bir me'yor uchun mezon hisoblanadi. Archa g'uddalari kamayishi olmaxonning sonining kamayishiga olib keladi, botqoqliklar va zaxkashlarning kamayishi esa laylaklarning kamayib, qirilib ketishiga sabab bo'ladi.
3. Omilning organizm hayoti uchun eng qulay darajasi – optimal daraja, ya'ni qulay me'yori deyiladi. Masalan, fasllar orasida mo'tadili kuz va bahor fasli eng qulay, 18°-20° S haroratda inson samarali mehnat qila oladi, bu inson uchun eng qulay abiotik me'yorlardan biri hisoblanadi. Ammo inson eng sovuq va eng issiq regionlarda ham yashaydi. Ammo hamma organizmlar ham keng me'yorli emas.
4. Bir tabiiy-ekologik me'yor ikkinchi bir tabiiy-ekologik me'yor uchun mezon (kriteriy) hisoblanadi.
5. Tabiiy-ekologik me'yorlar orasida limitrik me'yor muhim bo'lib, aynan shu me'yor antropogen me'yor uchun mezon sanaladi. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda bu omilni cheklovchi, ba'zilarida esa limitrik omil deb yuritishadi, aslida faqat muayyan bir markaziy va nozik omil me'yori haqida fikr yuritilgan.

Mabodo atmosfera tarkibidagi kislorod 21% o'rniga 63% bo'lib qolsa, ya'ni atmosferadagi mavjud bo'lgan kislorod tabiiy-ekologik me'yoridan uch baravarga oshsa, chaqmoqlar to'qnashuvidan tuganmas yong'in vujudga kelgan bo'lur edi. Aksincha o'z me'yoridan kamaysa, Yer sayyoramizdagi hayotning yuqori shakllari tiriklik bilan vidolashgan bo'lishar edi.

Biosferaning muhim hayot ko'rsatkichlaridan biri atmosfera tarkibidagi karbonat angidridning miqdoridir. Hammaga ma'lumki, Yer atmosferasida karbonat angidridning miqdori 0,03% ga teng. Xo'sh, boshqa sayyoralarda bu gazning miqdori qancha ekan?

Mars, Venera, Yer va hayot mavjud bo'lmagan deb faraz qilingan Yer sayyoralaridagi atmosfera tarkibi va harorati taqqoslangan:

Atmosferadagi gazlar tarkibi	Mars	Venera	Hayot bo'lmagan Yer	Yer
Uglerod to'rt oksidi	95	98	98	0,03
Azot	2,7	1,9	1,9	79
Kislorod	0,13	Izlar	Izlar	21
Yuza harorati, S	- 53	477	290	13

Bunga nazar tashlasak, Yer sayyoramizdagi uglerod to'rt oksidining SO₂ miqdori «arzimas»dek tuyuladi. Ammo aynan mana shu miqdor biosferaning hayot ko'rsatkichini tashkil etadi. Bir yilda tabiiy fon bilan 9 milliard tonna karbonat angidrid gazi atmosferaga yuboriladi. Antropogen faoliyat orqali (energetika va sanoat, transport, maishiy sohalarda) esa 25 milliard tonna va undan ko'proq miqdorda karbonat angidrid atmosferaga chiqarilib yuboriladi. Biosfera o'z imkoniyatidan foydalanib 9 milliard tonna karbonat angidridni o'zlashtirib kislorodga aylantirib bera oladi, mabodo biosferaning zaxira quvvati ham ishga solinganda 10-11 milliard tonna karbonat angidridni (o'rmonlar orqali) kislorodga aylantirib bera oladi, ortiqcha karbonat angidrid miqdori esa biosfera uchun «qalin ko'rpa»ni hosil qiladi, fanda bu «bug'li qobiq» deb yuritiladi, natijada sayyoramizdagi harorat odatdagidan ancha issiq bo'lib, muzliklar erishi mumkin. Demak, biosferada karbonat angidrid o'z tabiiy-ekologik me'yorida bo'lgandagina ekologik talafotlar ro'y bermaydi.

Biosferadagi ekokomponentlarning tabiiy-ekologik me'yori bilan antropogen omildan keyingi miqdoriy ko'rsatkichlarini taqqoslaydigan chizmani taklif etsak, ekologik tangliklar ro'y berish sabablari aniq bo'ladi.

№	Biosferadagi ekomponentlarning tabiiy-ekologik me'yorlari	Antropogen faoliyatdan keyingi ko'rsatkichlar
1	Atmosfera tarkibining 21% kislorod tashkil etadi.	Har bir yilda o'rmondagi daraxtlarning kesishi tufayli kislorodning kamayishi 10-12 mlrd.tonnani tashkil etadi. Bir minutda 50 gektar maydondagi o'rmonlar kesilmoqda. Havodagi kislorod konsentratsiyasining o'z tabiiy-ekologik me'yori, ya'ni 21%dan 17% tushishi natijasida insonlarda lohaslik, maza qochishi, behollik kuzatilsa, 12%ga kislorod konsentratsiyasining pastga tushishi kishi hayotiga xavf soladi, 11%dan kam kislorod konsentratsiyasida insonda ong yo'qoladi, 6% kam bo'lishida esa nafas olishning to'xtashi kuzatiladi.[3; 287]
2	Karbonat angidridning bir yildagi tabiiy chiqish ko'rsatkichi 9 mlrd.tonnani tashkil etadi.	Antropogen faoliyat tufayli 25-30 mlrd./tonna atmosferaga chiqariladi. Karbonat angidrid gazining o'z me'yoridan bunday oshganligi tufayli 2050 yilga kelib sayyoramizning o'rtacha haroratini 1,5-4 gradusga oshishiga, muzliklarning erishi va dengiz sathining 1,5-2,5 metrga ko'tarilishiga olib keladi. ("Bug'li qobiq"ning kuchayishi)

3	Oltingugurt to'rt oksidining atmosfera havosidagi tabiiy ko'rsatkichi 0,28-2,8 milligramm metr kubni tashkil etadi [4; 156]	Jahon miqyosida bir yilda atmosferaga yuboriladigan oltingugurt to'rt oksidining umumiy miqdori 190 mln/t. Shundan faqatgina sanoat korxonalarining o'zidan bir yilda jahon bo'yicha 120 mln./t oltingugurt oksidlari atmosferaga yuboriladi.
4	Azot oksidlari 30 mln./t. Azot oksidlarining tabiiy me'yori ozon me'yori uchun mezondir. Ularning tabiiy me'yorlari quyidagicha bo'ladi: Azot bir oksidi – 2mg/ m ³ ; Azot ikki oksidi – 0,02 mg/ m ³ ; Azot to'rt oksidi – 0,02mg/ m ³	Antropogen faoliyat tufayli 65 mln/t. atmosferaga yuboriladi. Bulardan tashqari azot bir oksidining atmosferada 200 yil "yashashiga" nima deyiladi?
5	Xlorning atmosferadagi tabiiy miqdori bir yilda 10 dan 100 000 tonnaga yetadi xolos.	Antropogen omil tufayli bir yilda 850 000 tonna xlor atmosferaga yuboriladi.
6	Qo'rg'oshinning tabiiy-ekologik me'yori: sanoat paydo bo'lmagan davrda tabiiy shamollar tufayli bir yil davomida atigi 11 ming tonna qo'rg'oshin okeanga kelib tushgan xolos.	Hozirgi paytda okeanda bir yilda 430 000 tonna qo'rg'oshin cho'kmoqda. Okeanning qo'rg'oshin bilan ifloslanishi 1940 yildan, ya'ni avtomobil benzini uchun tetraetilqo'rg'oshinning antidetonator sifatida ishlatila boshlangandan beri boshlangani fanga ma'lum. Pb(C ₂ H ₅) ₄ -tetraetilqo'rg'oshin zaharli bo'lishiga qaramasdan, motor yonilg'isi uchun keng tarqalgan antidetonatordir. Yer sharining Shimoliy yarim sharida har yili atmosferaga 350 ming tonna qo'rg'oshin avtomobil gazi sifatida chiqarib yuboriladi, ulardan 250 ming tonnasi atmosfera cho'kindisi sifatida dengiz suvlari tomon yo'l oladi.[5; 546]
7	Ozon 10 km dan to 50km balandlikdagi havoda bo'ladi, uning eng ko'p, ya'ni maksimum miqdori 18-26 kilometr oralarida bo'ladi. Stratosferada hammasi bo'lib 3,3 trillion tonna ozon bor.[6; 29] Agar ozonning bu miqdorini normal bosim (760 mm/simob ustuni) va 20 ^o daraja haroratda to'plasak, u holda bu qatlamning qalinligi hammasi bo'lib 2,5 — 3 mm ni tashkil etadi. Bu qalinlik millimetrning yuzdan biriga teng miqdor bilan o'lchanadi hamda Dobson birligi deb ataladi, ya'ni 1 D.b. 0,001 sm.ga teng bo'ladi. Ozon qobig'i bahorda o'zining eng ko'p miqdoriga—446 D.b.ga teng bo'ladi. Atmosferada uning normal miqdori (ya'ni tabiiy-ekologik me'yori) 300 Dobson birligiga (D.b.) teng.[7; 57] Stratosferadagi ozon doimo yangilanib tursa-da, ammo uning miqdori o'zgaruvchan muvozanatda bo'ladi. Ma'lumki, barcha narsa me'yorida bo'lgani ma'qul. Ozonning havodagi tabiiy konsentratsiyasi 15-20 mkg/m ³ eng qulay (optimal) hisoblanadi. Ruxsat etilgan miqdori esa 100 mkg/m ³ ni tashkil etadi.	1985yilda Antraktida osmonida ilk bor ozon qobig'ining yupqalashganligi aniqlandi, bu hol «ozon tuynugi» degan nom bilan yuritila boshlandi. Ba'zi bir ekologik mavzularga bag'ishlangan adabiyotlarda esa stratosferada 1976 yildayoq ozon miqdorining 7,5 % ga kamayib ketganligi qayd etilgan (qarang.: Filosofskie problemy globalnoy ekologii. M.: Nauka. 1983. S.239). 1987 yilda Antarktida ustidagi 40 mln.km ² . maydonda ozon qatlamining 200 D.b.gacha kamaygani kuzatilgan, bu amalda 60 ^o janubiy doira bilan tengdir. Kuzatishlar natijasida bunday zonlarda xlor oksidlari konsentratsiyasining yuqori darajada ekanligi kuzatilgan, demak xlor oksidlari konsentratsiyasi yuqori bo'lgan joylarda ozon miqdorining tabiiy me'yori kamayadi. Inson faoliyati tufayli atmosferaga metilxlorid, tetraxlorometan, xlorformetanlar, qisqacha aytganda «freonlar» deb ataluvchi o'zida galogen atomlarini saqlovchi birikmalar to'planib bormoqda. Ular ozon qatlamini yemiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Freonlar uzoq saqlanuvchi "yashovchan" birikmalar bo'lib, u atmosferada 105–205 yillar mobaynida saqlanadi. 1974 yilda xlorforuglerodlar aniqrog'i, F–11 ya'ni trixlorformetan (SCl₃F) va F-12, ya'ni dixloridfor metan (CCl₂F₂) 850 000 tonna, 1976-yilda 8,1 mln.tonna freonlar ishlab chiqarildi. Vulkanlar otilganda har yili 10 tonnadan to 100 000 tonnagacha xlor birikmalari stratosferaga chiqariladi. Demak, tabiiy va antropogen omil tufayli atmosferaga chiqarilayotgan freonlarning miqdori bir-biridan katta farq qiladi. Stratosferada inson tomonidan ishlab chiqib yuborilgan freonlarga quyidagilar mansub: metilxloroform- CH₃CHCl₃ ; tetraxlorometan- CCl₄ ; metil xloridi- CH₃Cl . Freonli birikmalar asosan xolodilniklarning sovitgich apparatlarida, bo'yoqchilikda, kosmetika, qishloq

		xo'jaligida, tibbiyotda, sun'iy ko'piklar hosil qilishda, aerazolli ballonchalarda ishlatiladi. Hisob-kitoblar 10-15km. yuqorida bu birikmalar konsentratsiyasining ruxsat etiladigan normadan 10 barobar ortiqqligini ko'rsatdi [8; 8] Jahonda bir yilda 700 000 tonna va bundan ham ko'p miqdorda freonlar ishlab chiqarilmoqda. Shimoliy yarim sharda ham 1979-1990-yillarda freonlar miqdorining ko'payishi bilan ozon qatlami 5%ga kamaygan. Ozon qatlamining 5%ga kamayishi teri raki (melonoma va karsinoma) ni 10 % oshishiga olib keladi. Demak, biosferada «arzimagan» miqdordagi, ya'ni nihoyatda kam miqdordagi ekokomponent ham o'z o'rniga, o'z funksiyasiga ega. Masalan, 1991-yil dekabrda 1992-yil fevrali o'rtasida Rossiya va Skandinaviyada ozonning umumiy miqdori keskin kamaygan, ayniqsa Sankt-Peterburg, Riga va Arxangelskda ozon miqdori uning tabiiy miqdoridan 45% kamligi aniqlangan. Uning sababi freonlarning 10 baravardan ortiq miqdorda atmosferaga chiqib ketishi bo'lgan. Bularning barchasi insoniyatdan zarur choralar ko'rishni talab qilmoqda. Mamlakatlararo qabul qilingan hujjatlarga muvofiq 2005-yildan keyin metilxloroform (SN₃SSI₃) ishlab chiqarilishi taqiqlanadi. Chunki bir atom xlor 100 000 molekula ozonni yemiradi. Ozon qatlamini parchalovchi moddalar bo'yicha 1987-yilgi Monreal protokoliga ko'ra 1997-yildan so'ng freonlar ishlab chiqarilishi va ulardan foydalanish 50% ga kamaytirilishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda ozon qatlamini asrash bo'yicha Vena konvensiyasini va ozon qatlamini parchalovchi moddalar bo'yicha Monreal protokolini ratifikatsiya qildi. 1998-yilda esa respublikamiz bu protokolga kiritilgan ikkita o'zgarishni ham imzolab, ozonni muhofaza qiluvchi davlatlar safidan o'rin oldi.
8	Tabiatni o'zi okean va dengizlarga neft va neft mahsulotlarini yubormaydi.	BMT ma'lumotlariga ko'ra bir yilda dengiz okeanlariga 6-7 mln.tonna neft to'kilar ekan. Tajriba natijalarining ko'rsatishicha bir soatda bir kvadrat mil hududda neft qobiqlari bo'lmasa 97 tonna suvni bug'latadi, mabodo neft suv yuzasini qoplagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 45 tonnani tashkil etadi. Bug'lanish jarayonining pasayishi okean sathida havo massasining suv bug'lari bilan to'yinish imkonini kamaytiradi.
Biosferaning fizikaviy hayot ko'rsatkichlari		
9	Tabiiy radioaktivlik bir yilda 100 millirentgen yoxud 0,1 ber/yilni tashkil qiladi. Biosferadagi tabiiy radioaktivlik daraja sayyoramiz miqyosida million yillar mobaynida o'zgarmay kelgan edi.	Birinchi atom bombasi 1945-yilda portlatilgan bo'lsa, hozirgi kungacha jahonda 2000 ta bunday portlatishlar kuzatildi. Shu sababli ham sayyoramizdagi radioaktivlik o'z tabiiy darajasidan 2%ga oshgan.
10	Erning tabiiy elektromagnit maydoni o'n darajasi minus uchdan o'n darajasi o'n gersga teng	Shaharlarda magnitli fon yuz barobardan tortib ming barobargacha oshgan.

Chizmadagi taqqosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, hech bir ekologik komponent yoxud ekologik omil o'zining tabiiy-ekologik me'yoridan oshmasligi ham, kamaymasligi shart. Me'yorning pastki yoki yuqorigi chegaralaridan chetga chiqishi albatta, ekologik inqirozlarga olib keladi. Har bir o'simlik, hayvonot olami vakillarining tabiiy-ekologik me'yorlariga amal

qilinsagina ekologik inqirozlar oldi olinadi. Tor me'yorli qora anjir Buxoro viloyatining Qo'rg'on hududlarida, anzur piyoz Samarqandning tog'li hududlaridagina o'sib yetishadi, ular tarkibidagi niatsin va fitonsidlarni inson organizmiga nechog'li foydali ekanligini bilsak, ularning yashash maydoni – ekologik nishiga zarar yetkazmasligimiz lozim.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Tabiiy-ekologik me'yorlarga amal qilish – tabiat qonunlariga amal qilishdir. Tabiiy-ekologik me'yorlarga barcha mamlakatlar amal qilsagina inqirozlar oldi olinadi;
2. Bir tabiiy-ekologik me'yor ikkinchi bir tabiiy-ekologik me'yor uchun mezon bo'ladi. Shu sababli hech bir ekologik me'yor va o'lchovlarni buzish mumkin emas. Aksincha, me'yorlar uzviy tizimini buzmaslik uchun ularni mahalliy hududlardan asrashni boshlashimiz lozim.
3. Ekologik inqirozlar oldini olish uchun har bir ekotizimdagi limitrik me'yorlarni chuqur o'rganishimiz, ularni avaylashimiz shart.
4. Ekologik nuqtai nazardan bir mamlakatda ro'y bergan mudhish xatolikni boshqa bir mamlakat aslo qaytarmasligi lozim. "Ura kasalligi", "Minamata kasalligi", "Itay-itay" kabi kasalliklar – ekologik kasalliklar bo'lib, ular atrof-muhitning, suvning zaharli va zararli kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishi tufayli vujudga keladi. Stronsiy va uning tuzlarini inson organizmida to'planishidan paydo bo'lgan "ura kasalligi" Zabaykalening Ura daryo vodiysi atrofida yashaydigan kishilarda uchragan. Zero, Ura daryosi suvida stronsiy tuzlari ruxsat etiladigan miqdordan ancha ko'p bo'lgan. Bu suvni ichgan kishi suyagidagi tuzlar bilan stronsiy tuzlari tezda aralashib ketgan, natijada suyak yumshoq, egiluvchan bo'lib, insonda o'ziga xos mayiblik, nogironlik yuzaga kelgan.

"Bizning tajribamiz, ekologiya o'lchovlarini xalqaro gumanitar siyosatning muhim mezonlaridan biriga aylantirish zarurligini ko'rsatib turibdi»[9; 14], deb ta'kidlaganda I.A.Karimov, aynan, ekologik o'lchovlar va me'yorlarni nazarda tutgan edilar.

5. O'zbekistondagi o'quv yurtlarining barcha-barchasida "Ekologiya" (Umumiy ekologiya), "Ijtimoiy ekologiya", "Ekonologiya", "Yashil iqtisod" fanlarining o'qitish davr talabidir. Ekologiya fani tartibi – algoritm aslo buzilmasligi shart. Har bir yosh mutaxassis ekologik bilimli bo'lgandagina u tabiat qonunlariga rioya etadi. Natijada tabiat borlig'i sog'lom bo'ladi. Sog'lom avlod esa – sog'lom tabiat mahsulidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Гегель, Георг Вильгельм Фридрих. Наука логики. В 3-х томах. Т.1. М., "Мысль". 1970. - С. 433. - С. 474-475.
2. Абу Али Ибн Сина. Канон врачебной науки. Книга. 1. Изд. второе. Т., "Фан". 1981. - С. 17-18.
3. Инженерная экология и экологический менеджмент. М.Логос. - 2003. С. 287.
4. В.И.Вернадский и современность. М., "Наука". 1986. - С. 156.
5. Экологические очерки о природе и человеке. М.: Прогресс. 1988. 546 с.
6. Ю. А. Израэль., Ф.Я.Равенский. Берегите биосферу. М., Педагогика. 1987. - С. 29.
7. Ю.А.Израэль и Д.Король. Атмосферный азон – сенсации и реальность. Л., Гидрометеиздат. 1991.
8. Аргументы и факты. 1992 г. феврал. №8. - С. 8.
9. И.А. Каримов. Ўтмишсиз келажак, ҳамкорликсиз тараққиёт бўлмайди. И.А.Каримовнинг ЮНЕСКО Ижроия кенгаши сессиясида 1996 йил 24 апрелда сўзлаган нутқи. Халк сўзи, 1996 йил, 25 апрел.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).